

**BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O’QITISH  
ORQALI KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI**

*Xakimova Marjona Azamat qizi*

*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

*e-mail: [marjona01020304@gmail.com](mailto:marjona01020304@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda ingliz tilini o’qitishda boshlang’ich sinf o’quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirish dolzarbliyi, kreativ tafakkurni rivojlantirish prinsiplari haqidagi kerakli ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Shuningdek, boshlang’ich ta’limda xorijiy tillarni o’qitishning asosiy tamoyillari muhimlik mezonlari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** boshlang’ich sinf o’quvchilari, o’qituvchi, kreativ fikrlash, prinsip(tamoyil) tushunchasi, prinsiplar verbalizatsiya, korrelatsiya, kreativ tafakkur.

Ta’lim tarbiya jarayoni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa qonuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiyligi bo‘lishi mumkin. Bu qonuniyatlar ta’limning umumdidaktik tamoyili deyiladi. Boshqa qonuniyatlar esa ayrim fanlarni o’qitishga xos bo‘lishi mumkin, masalan; ingliz tili o’qitish tamoyillari. Tamoyil tushunchasi didaktikada hali to‘la hal etilmagan. Agar bir guruh tamoyillar ta’lim jarayonining qonuniyatlarini ifodalasa, ikkinchi guruh tamoyillar qaysidir nutq faoliyatining turiga xos bo‘lgan qonuniyatlarni ifodalaydi, uchinchisi esa til materialining qaysidir bo‘limiga xos bo‘lgan tamoyillardir. Oxirgisi maxsus tamoyillar deyiladi [1]. Tamoyil (prinsip) termini «asos bo‘ladigan yo‘l-yo‘riq, qonun-qoida» ma’nosini ifodalaydi. Ye.I.Passov fikricha, «tamoyil – o’qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir» [2]. Konsepsiya va tamoyillarning to‘g‘ri tanlanishi darsda tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi, kichik muktab yoshidagi o’quvchilarning ushbu faoliyatga qiziqishlarini orttiradi. Ilmiy manbalarda boshlang’ich ta’limda xorijiy tillarni o’qitish konsepsiyalari va bir necha o‘nlab tamoyil (prisip)lari olg‘a surilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining Ta’lim va madaniyat tadqiqotlar dasturi doirasida 2005-2006 yillarda bajarilgan EAS 89/04, Lot 1 «Good Practice and Main Principles» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotda boshlang’ich ta’limda

xorijiy tillarni o‘qitishning asosiy tamoyillari muhimlik mezoni asosida quyidagi tartibda umumlashtirilgan:

- 1) mazmunli kontekst va o‘quvchi yoshiga mos mavzu tanlash (didaktik);
- 2) ingliz tili o‘rganishga ijobiy yondashish(pedagogik);
- 3) xolistik o‘rganish (metodologik);
- 4) ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning yoshga oid psixologik va jismoniy yetuklik darajalarini to‘liq inobatga olish (psixolingvistik);
- 5) o‘quvchilarni o‘zgalarga nisbatan bag‘rikenglik va turli qadriyatlarni hurmat ruhida tarbiyalash (pedagogik);
- 6) vizual yondashuvga ustuvor ahamiyat bergen holda boshqa nutq analizatorlarining to‘liq ishtirokida o‘rganish (psixologik masalalarni metodologiyaga tatbiq etish);
- 7) ingliz tili o‘rganishga motivatsiya uyg‘otish (ichki turtkini qo‘zg‘atish) (psixolingvistik);
- 8) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish (pedagogik);
- 9) nutq hosil qilinishi uchun tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish (didaktik);
- 10) mashg‘ulotlarni imkon qadar o‘rganilayotgan chet tilda tashkil etish (pedagogik);
- 11) o‘quvchilarning ingliz tili o‘rganish strategiyalari va usullarini hisobga olish (didaktik).

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning didaktik tamoyillari.

Ingliz tili o‘qitish amaliyotida taklif etilgan qoidalar va qarashlar lingvodidaktik (tillar ta’limshunosligi) tamoyillar maqomida umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Masalan, J.Jalolov nomlanishi va mohiyatida tafovutlar bo‘lishiga qaramay, quyidagi didaktik tamoyillarni umumlashtirgan: tarbiyaviy ta’lim, onglilik, faollik, ko‘rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni) puxta o‘zlashtirish, o‘quvchi kuchiga moslik kabilar. N.A.Gorlova boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishning didaktik 13 tamoyillarini quyidagicha umumlashtirgan: faollik, ko‘rgazmalilik, o‘quvchi salohiyatiga moslik, individual yondashish, sistemalilik.

Ilmiy manbalarni o‘rganib chiqib boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O‘quvchilarning ingliz tili o‘rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish.
2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.
3. Darslarda ma’noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.
4. Mashg‘ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanish.
5. O‘quvchilarning yoshiga mos autentik materiallaridan foydalanish.
6. Nutq namunalari asosida ingliz tilio‘rgatish.
7. Mavzularni obrazlashtirish (gapiruvchi qo‘g‘irchoqlar yordamida).  
Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning psixolingvistik tamoyillari.

Til o‘rganish aqliy faoliyat bo‘lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan ingliz tilio‘qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug‘iladi. Ilmiy manbalarda ingliz tili o‘qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar «verbalizatsiya» (o‘zga til amalda faqat og‘zaki nutq orqali o‘rganiladi) va «korrelatsiya» (ingliz tili materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo‘ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi) nomlarini olgan. Ingliz tilio‘qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida ingliz tili o‘qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e’tibor qaratilgan. Metodika tamoyillari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun qoidalarga suyanib ish ko‘rildi va quyidagi psixolingvistik tamoyillar umumlashtirildi:

1. O‘quvchilarning ingliz tili o‘rganish, o‘zlashtirishga motivatsiyasi (ichki turtkisi)ni oshirish.
2. Mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning yoshiga mos jismoniy harakatlarini rag‘batlanirish.
3. O‘quvchilarni ona tili va o‘rganilayotgan chet tilning o‘xhash jihatlaridan xabardor etish.
4. O‘quvchilarning vositachi til (metatil) tajribalarini rivojlantirish.
5. O‘quvchilarni ona tili va o‘rganilayotgan chet tilning aloqadorligidan foydalanishga o‘rgatish.
6. O‘quvchilarni o‘rganilayotgan ingliz tili tuzilmasi bilan umumiylashtirish.

7. Individual yondashish, ya’ni o‘quvchilarning xos xususiyatlari (har qaysi o‘quvchining tabiat, nimalarga qodirligi, qiziqishi, kim bilan do‘stlashishi, nimalarga salbiy munosabatda bo‘lishi)ni inobatga olib psixo-pedagogik tadbirlar olib borish.

### **Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning metodik tamoyillari**

Ingliz tili o‘qitish metodikasining, (a) umumiy (nutqiy yo‘nalganlik, chegaralab va yaxlit o‘rgatish, mashqlar bajarish, til tajribasini hisobga olish), (b) xususiy (nutq namunasi asosida ingliz tili o‘qitish, til mashqi va nutq amaliyoti bog‘liqligi, nutq faoliyati turlarining o‘zaro bog‘liqligi, og‘zaki nutqning ilgarilashi, chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish, ibtidoiy bosqichni jadallashtirish), (d) maxsus (grammatikani o‘rgatish, leksikani o‘rgatish, o‘qishni o‘rgatish va ingliz tili o‘rgatishda nutq yozishni qo‘llash) tamoyillari ishlab chiqilgan. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda xorijiy tillarni boshlang‘ich ta’limda o‘qitishga kommunikativ yondashuvni nazarda tutdik.

1. Vizual yondashuv va multisensor (barcha nutq analizatorlarini to‘liq qo‘zg‘atuvchi) o‘rganishni tatbiq etish. Ya’ni o‘quv materialini puxta o‘zlashtirilishini ta’minalash maqsadida ko‘rish, eshitish, harakat (nutq harakat va qo‘l harakat) analizatorlari ishtirokida ko‘plab mashq qilish.

2. Yaxlit (leksika, grammatika va talaffuzga oid til materialini yaxlitligicha) o‘rgatish.

3. Nutqiy yo‘nalganlik (leksik, grammatik va talaffuz mashqlari nutq faoliyatini egallah maqsadida bajarish).

4. Nutq namunalari asosida ingliz tili o‘rgatish.

5. Ona tili va bilingv o‘quvchilarning ikkinchi tilini o‘zlashtirishdagi til tajribalarini hisobga olish.

### **Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning pedagogik tamoyillari**

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning pedagogik tamoyillari o‘zbek va rus tilidagi ilmiy manbalarda dadidaktik tamoyil sifatida mufassal bayon etilgan. Lekin xorijiy adabiyotlarda pedagogik tamoyil alohida tadqiq etiladi. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda uch tildagi ilmiy manbalardan foydalandik.

1. O‘sib kelayotgan avlodni har tomonlama kamolotga yetkazish. Ingliz tili vositasida o‘zlashtiriladigan axborot va ingliz tili o‘rganish mobaynida olinadigan aqliy va nutqiy ko‘nikma hamda malakalar o‘quvchilarni tarbiyalaydi.

2. O‘quvchilarni o‘rganilayotgan tildan foydalanishga rag‘batlantirish.
3. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish.
4. O‘quvchilarni atrofdagilarga nisbatan bag‘rikenglik va turli qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.
5. Darslarda bilimlarning mustaqil fahmlab o‘rganilishi uchun optimal vaziyat yaratish.
6. O‘quvchilarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini mustaqil va o‘zaro aniqlab borish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.
7. O‘quvchilarga o‘z bilimlarini o‘rganilayotgan tilda namoyon qilish imkoniyatini yaratish.
8. Darsslarni kompetensiyalar egallanishiga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida tashkil etish [3].

Yuqoridagilar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilini yanada chuqurroq anglash uchun xizmat qiluvchi tamoyillar hisoblanadi.

Yevropa olimlarining til o‘rganish uchun xizmat qiluvchi tamoyillarini ham ko‘rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Misol uchun Direct Method (To‘g’ridan to‘g’ri usul) asoschilari: Sauveur, Maximillian Bertlitz tajriba jarayonida quyidagi prinsiplarni tavsiya etishgan:

1. Sinfda o‘qitish o‘rganilayotgan tilda olib boriladi
2. Faqatgina kunlik lug‘at va gaplar o‘qitiladi
3. Og‘zaki muloqot ko‘nikmalari kichik intensiv sinflarda o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida savol-javob almashinushi tarzida tashkil etilib, bosqichma-bosqich shakllanriladi.
4. Grammatika induktiv tarzda o‘qitiladi
5. Yangi ma’lumotlar og‘zaki tanishtiriladi
6. Mavjud lug‘at ko‘rgazmalar, predmetlar va rasmlar orqali o‘rgatiladi, mavhum lug‘at g‘oyalar yig‘indisi orqali o‘rgatiladi
7. Ham og‘izaki nutq, ham tinglab tushunish o‘rgatilinadi
8. To‘g’ri talaffuz va grammatikaga urg‘u beriladi [4].

Direct Method asoschilari tajriba jarayonida ya’ni o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida 8 ta prinsplarni asosiy deb olishgan. Yuqorida keltirilgan prinsplardan dastlabkisiga to’xtaladigan bo‘lsak ya’ni “Sinfda o‘qitish o‘rganilayotgan tilda olib boriladi”degan fikrga qo’shimcha qilib, o‘rganilayotgan tilni nafaqat o’sha tilning o‘zida balki o‘rganuvchilarining o‘z ona tillarida ham izohlab berish boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qiyichilik

tug’dirilishini oldini oladi. “Faqtgina kunlik lug’at va gaplar o’qitiladi” degan tamoyil esa o’quvchilarni ortiqcha lug’at va gaplarni yodlamasdan faqtgina asosiylariga e’tibor qaratib, ularni mukammal o’rganishga yordam beradi. “Og’zaki muloqot ko’nikmalari kichik intensiv sinflarda o’qituvchilar va talabalar o’rtasida savol-javob almashinushi tarzida tashkil etilib, bosqichma-bosqich shakllantiriladi” degan tamoyilda shuni nazarda tutish lozimki, kichik intensive sinflarda savol-javob almashinushi tarzida tashkil etilgan og’izaki muloqot umumiy guruhga berilgan savol-javob almashinushi jarayonidan samaraliroq natija bershi ko’zda tutiladi. “Grammatika induktiv tarzda o’qitiladi” ushbu tamoyilda grammatika ya’ni xususiylikni o’rganib, umumiyligka o’tiladi. “Yangi ma’lumotlar og’zaki tanishtiriladi” ushbu tamoyil orqali o’quvchilarga fan va o’rganilishi lozim bo’lgan ma’lumotlar og’zaki tushuntirilishi samaraliroq ekanligi aytilmoqda. “Mavjud lug’at ko’rgazmalar, predmetlar rasmlar orqali o’rgatiladi, mavhum lug’at g’oyalar yig’indisi orqali o’rgatiladi” ushbu tamoyil orqali ilgari surilgan fikrda esa autentik materiallardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Og’zaki yondashuv(Oral Approach)ning asosiy xususiyatlari quyidagilar edi:

1. Til o’rgatish og’zaki nutqdan boshlanadi. Material yozma shaklda taqdim etilishidan oldin og’zaki o’qitiladi.
2. O’rganilayotgan til sinfning tili bo’lishi kerak.
3. Yangi til nuqtalari bilan tanishtiriladi va vaziyatga qarab mashq qilinadi.
4. Muhim umumiy xizmat lug’ati qamrab olinishini ta’minlash uchun lug’at tanlash tartib-qoidalariga rioya qilinadi..
5. Grammatikaning bandlari murakkab shakllardan oldin oddiy shakllarni o’rgatish tamoyiliga asosan darajalanadi.
6. O’qish va yozish yetarlicha leksik va grammatik asos hosil bo’lgandan keyin joriy qilinadi [4].

Kommunikativ tilni o’rgatishning rivojlanishini, CLT(Communicative Language Teaching)ni talqin qilishning turli usullarini, shuningdek, so’nggi tanqidlarga ko’ra, CLTni usul emas, balki yondashuv sifatida ko’rib chiqildi. Bu til va tilni o’rganishning kommunikativ ko’rinishini aks ettiruvchi va turli xil sinf tartib-qoidalarini qo’llab-quvvatlash uchun ishlatalishi mumkin bo’lgan turli xil tamoyillarga ishora qiladi. Ushbu tamoyillar qatoriga quyidagilar kiradi:

O’quvchilar tilni muloqot qilish uchun foydalanish orqali o’rganadilar;

To’g’ri va mazmunli muloqot sinf faoliyatining maqsadi bo’lishi kerak;  
Ravonlik muloqotning muhim jihatni hisoblanadi;  
Muloqot turli til ko’nikmalarini birlashtirishni o’z ichiga oladi;  
O’rganish ijodiy qurilish jarayoni bo’lib, sinov va xatolarni o’z ichiga oladi [4].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Saydaliyev S.S. Chet tili o‘qitish metodikasidan ocherklar. – N.: Namangan, 2004. – 78 b.
2. Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – 640 с.
3. Tajibayev G.Sh. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH./ NAMANGAN — 2019
4. Jack C., Richards and Theodore S., Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching Third Edition. - CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS University Printing House, Cambridge, CB2 8BS, United Kingdom). P. 12-47-105